

2020- yilning yanvar-iyul oylarida Surhondaryo viloyatixizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi jamiyat farovonligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Resurslar sarfini tejovchi samarali innovatsion iqtisodiyotni barpo etish jarayonida xizmatlar sohasi alohida o'r'in tutadi, chunki u, tovar ishlab chiqarish bilan taqqoslaganda, materiallar sarfini kamligiga, xarajatlarni tez qoplanishi va yuqori daromadlilikka ega.

Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2020- yilning yanvar-iyul oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

4181,6
mlrd so'm

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi

100,8 %

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari
hajmining o'sish sur'atlari

98,5 %

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan
bozor xizmatlari hajmining o'sish
sur'atlari

1583,4
ming so'm

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi


2020- yil
yanvar-iyul

Surxondaryo viloyatida xizmatlarsohasining rivojlanisi

Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'rildi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlar - ga ko'ra, 2020- yilning yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4181,6 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 434,2 mlrd. so'mga oshdi. Taqposlama ekvivalent - da, o'tganyilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,8 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayriboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natiiiasi hisoblanadi.

2020- yil
yanvar-iyul

Surxondaryo viloyatida xizmatlarsohasining rivojlanisi

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligini va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yilning yanvar-iyul oylarida)

Xizmatlar - jami	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
shu jumladan:	4181,6	100,8
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	212,5	107,6
Moliyaviy xizmatlar	850,1	131,0
Transport xizmatlari	646,3	95,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	614,4	95,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	119,4	81,0
Savdo xizmatlari	1616,4	96,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	110,0	82,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	157,0	139,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	49,0	95,5
Ijara xizmatlari	89,6	80,7
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	101,3	85,3
Shaxsiy xizmatlari	105,0	87,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	42,0	66,3
Boshqa xizmatlar	83,0	81,6

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yilning yanvar- iyul oylarida ularning ulushi 38,6 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (15,5 %), moliyaviy xizmatlar (20,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (5,1 %) qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan % da (2020- yilning yanvar-iyul oylarida)



Yuqori o'sish ta'lim sohasidagi xizmatlar (39,8 %), moliyaviy xizmatlar (31,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (7,6 %) qayd etildi.

Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoxda.



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi sezilarli darajada (-19,0 % ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (- 4,5 % ga), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (9,5 % ga), transport xizmatlari (-4,3 % ga), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (-33,7 % ga), shuningdek, ijara xizmatlari (-19,3 % ga) da pasayish kuzatildi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2020- yilning yanvar-iyul oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 38,6 % ni tashkil etib, bu 1616,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi.


Savdo bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'llinadi.

2020- yil
yanvar-iyul


Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Savdo xizmatlari tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-iyul oylarida)


Savdo xizmatlari - 100,0 %



Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosiga, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 13,3 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosiga bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 3,8 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar (2020- yilning yanvar-iyul oylarida)

**Moliyaviy xizmatlar hajmi
850,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi.**



**Ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi
20,3 % ni tashkil etdi.**

O'tgan yilning shu davriga nisbatan

**255,3 mlrd. so'mga hajmning ko'payishi
kuzatildi.**



Ularning o'sishi 31,0 % ni tashkil etdi.

**2020- yil
yanvar-iyul**

Surxondaryo viloyatida xizmatlarsohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'r'a olinadi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-iyul oylarida)



Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 94,8 % ni tashkil etadi.

Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 3,8 % oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiyligi moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 1,4 % ni tashkil etadi.


2020- yil
yanvar-iyul

Surxondaryo viloyatida xizmatlarsohasining rivojlanishi

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2020- yilning yanvar-iyul oylarida)



2020- yilning yanvar-iyul oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 212,5 mlrd. so'm darajasida belgilandi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagи xizmatlarning o'sish sur'ati 107,1 % ga yetdi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyl hajmdagi ulushi 5,1 % ni tashkil etdi.

2020- yil
yanvar-iyul

Surxondaryo viloyatida xizmatlarsohasining rivojlanis

AKTdan faol foydalanish infratuzilmasi yuqori kadrlar salohiyati va yangi ko'rinishdagi texnika va texnologiyalarga asoslangan.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-iyul oylarida)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 96,2 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 1,1 %, boshqa aloqa xizmatlari - 0,5 %, noshirlik xizmatlari, shuningdek, axborot sohasidagi xizmatlar - 1,6 % dan tashkil etdi.

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2020- yilning yanvar-iyul oylarida)

2020- yilning yanvar-iyul oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 157,0 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 3,8 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 139,8 % ni tashkil etdi.



Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020- yilning yanvar-iyul oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 81,0 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 119,4 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi atigi 2,9 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

- oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2020- yilning yanvar-iyul oylarida)

92,7 %



Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar

Yashash bo'yicha xizmatlar



7,3 %

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyligi oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 92,7 % bilan ustunlik qiladi.

2020- yilning yanvar-iyul oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 2,9 % ni tashkil etdi.

2020- yil
yanvar-iyul

Surxondaryo viloyatida xizmatlarsohasining rivojlanishi

11

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yilning yanvar-iyul oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, ming so'm
Surxondaryo viloyati *	4181,6	100,8	1583,4
Termiz sh	2164,8	111,5	11973,7
tumanlar:			
Oltinsoy	102,7	94,3	579,4
Angor	87,2	85,0	657,3
Bandixon	24,3	90,6	1 626,7
Boysun	67,0	75,8	578,5
Muzrabot	111,0	81,1	323,5
Denov	773,4	108,7	2002,1
Jarqo'rg'on	129,0	95,0	589,6
Qumqo'rg'on	117,5	82,1	500,3
Qiziriq	97,0	91,6	849,2
Sariosiyo	130,6	78,9	621,7
Termiz	87,4	85,2	1129,5
Uzun	83,5	77,8	485,8
Sherobod	94,2	74,5	485,3
Sho'rchi	111,8	77,9	534,1

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajm

larni qo'shgan holda

Dastlabki ma'lumotlar

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Termiz shahrida (2164,8 mlrd. so'm), Denov (773,4 mlrd. so'm), Sariosiyo (130,6 mlrd. so'm) va Jarqo'rg'on (129,0 mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi.

Ma'lumki, zamонавиј О'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020-yanvar-iyul yilning oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1583,4 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 98,5 % ni tashkil etdi.



2019- yilning yanvar- iyul oylariga nisbatan

2020- yil
yanvar-iyul

Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

13

Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, ming so'm (2020-yilning yanvar-iyul oylarida)



Ushbu xizmatlar hajmi ko'rsatkichi hududlar o'tasida Termiz shahrida 9586,1 ming so'mdan Bandixon tumanida 299,0 ming so'mgacha oralig'idabo'ladi. Ushbu mintaqada aholi jon boshiga xizmatlar hajmi ko'rsatkichi nisbatan pastligi bu hududda aholi sonining yuqori ko'rsatkichlariga bog'liqligidir.

Taqqoslash uchun: Termiz tumanida aholi soni (2020 yilning 1- avgust holatiga ko'ra 77,4 ming kishini tashkil etdi) uncha ko'p bo'lmasada, biroq aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi nisbatan yuqori. Ko'rib chiqilayotgan davrda u 1129,5 ming so'mni tashkil etdi.

- Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumдорлиги va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli faoliyatlarni o'z ichiga oladi.
- Xizmatlar sohasida iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

Dastlabki ma'lumotlar

2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*


Xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va
tashkilotlar soni - 23916 birlikda

Ularning umumiy sonidagi
ulushi -
60,8 %

O'tgan yilning shu davriga
nisbatan o'sish sur'atlari -
133,0 %



2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



2020- yilning
1- avgust holatiga
ko'ra, xiz-matlar
sohasida faoliyat ko'r-
satayotgan korxona
va tashkilotlarning
ulushi - 60,7 %,
sanoat - 15,8 %,
qurilish - 10,1 % ga
yetdi va atigi 13,4 % i

qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasi hissasiga to'g'ri keldi.

2020- yil
yanvar-iyul

Surxondaryo viloyatida xizmatlarsohasining rivojlanishi

2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni (40,8 %) egallaydi. Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 9,7 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 5,5 % ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 1,9 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 2,5 % ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: 2019- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 18,0 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiylar tarkibida savdo xizmatlari – 38,4 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 10,4 %, tashish va saqlash - 6,2 %, axborot va aloqa - 1,9 %, sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlari ko'rsatish - 2,6 % hamda boshqa turdagini xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar – 40,5 % ni tashkil etaan.

Kuzatilayotgan davrning o'tgan yilga nisbatan savdo faoliyati sohasidagi yuqori o'sishi – 35,8 % ekanligi aniqlandi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1,6 mingtaga ko'paydi va 6,4 mingtaga yetdi.



Shuningdek, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq faoliyatda ham o'sish kuzatildi - 20,7 %. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 0,3 mingtaga ko'paydi va 1,5 mingtani tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining o'sishi, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiylar sonining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

**2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 20132 taga ko'paydi.

Natijada, ularning soni 5783 tani tashkil etdi va o'sishi esa 40,3 % ga oshdi. Faoliyat ko'r-satayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiyligi sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 54,1 % ga yetdi.



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlar

Respublikada xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati va imtiyozlariga, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, ayniqsa zamонави y xizmat turlariga bo'lgan iste'molchilar talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.

Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, xizmatlarni ishlab chiqarish hajmiga uy xo'jaliklari daromadlari va imtiyozlar, xizmatlarga tariflar, boshqa tomondan - investitsiyalar, soliq, pul-kredit va davlat siyosati, ilmiy-texnik siyosat, shuningdek, kichik biznesning rivojlanishi kabi omillar ta'sir qiladi.

Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: P.Eshboyeva Tel: (76) 225-65-91

2020- yil
yanvar-iyul

Surxondaryo viloyatida xizmatlarsohasining rivojlanis

19